

BOLA TARBIYASI VA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATI

Tolibayeva Durdona Yunus qizi*Ajiniyoz nomidagi NDPIning Boshlang'ich ta'lism fakulteti
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 3-“G” guruh talabasi*

Annostatsiya: Bu maqolada bolalarga to‘g‘ri tarbiya berish, ularni har tomonlama bilimli, aqilli, tarbiyal qilib tarbiyalashda oila va o‘qituvchining tutgan o‘rnini, o‘qituvchining o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘nalish bera olishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ma‘naviyat, ma‘rifat, ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi, mакtab, oila, o‘quvchi, hunar, g‘ayrat, bilim, kasb, yo‘nalish.

O‘z bilimsizligin bilsin, deb Alloh,
Yuz hunarga diling ayladi hamroh.
Igni kabi yuz xil kiyimdan o‘tsang,
Yalong‘ochligingdan bo‘lursan ogoh.
Faylasuf shoir Mirzo Abdulqodir Bedil

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasisligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirlingimizni, qat‘iyat va mas‘uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma‘naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning „Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch“ asarida ma‘naviyatga doir fikrlarni inkor etmagan holda, „ma‘naviyat“ tushunchasi mazmuni faqat „ma‘ni“, „ma‘no“ degan so‘zlar doirasida cheklanib qolmasligini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Nega deganda insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlarni mantiqiy davom ettiradigan bo‘lsak har birimiz, yosh-u qari, katta-yu kichik barchamiz o‘z ma‘naviyatimizni, madaniyatimizni shakllantirgan holda, o‘z qadriyatlarimizni bilishimiz va ularni asrab-avaylashimiz kerak. Buning uchun har bir yosh avlodni bolalikdan, to‘g‘rirog‘i ona qornidan boshlab, uni tarbiyalash maqsadga muofiq. Ona qanchalik yuksak ma‘naviyatli bo‘lsa, bu o‘z navbatida bolaga

ham o‘tadi,ya‘ni ona farzandining go‘daklik paytidan unga alla aytadi,bu nafaqat farzandining orom olishi balki uning ruhan va ma‘nan oziq olishiga sabab bo‘ladi.

Farzandning barkamol shaxs ya‘ni ma‘naviyati yetuk bo‘lib shakllanishida nafaqat ona balki ota,butun oila,mahalla hamda matabning ro‘li katta.Yana bir narsani aytish mumkinki yaxshi muallim xuddi bolaga o‘z ota-onasiday qadrli,suyukli va albatta hurmatiga sazovor bo‘lishi tabiiy.

„O‘qituvchilik kasbi antropologiya, insonning murakkab va qiziqarli ruhiga nazar tashlash qobiliyatidir. Pedagogik mahorat va pedagogik san‘at va donolikni yurak bilan anglay bilishdir“, -deb o‘z fikrlarini bildirgan V.A.Suxomlinskiy.

Darhaqiqat o‘qituvchilik kasbi buyukdir. Shu o‘rinda yana bir faylasuf Y.Oltinsarin shunday degan: „Yaxshi o‘qituvchi men uchun muhimroq,chunki , o‘qituvchi maktabning yuragi“, - degan.Mana shunday maktabning yuragi bo‘lgan biz salkam pedagoglar farzandlar tarbiyasiga,ta‘limiga alohida e’tibor va mas‘uliyat bilan qaramog‘imiz lozim.

Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda matabda shug‘ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi.Tarbiya va ta‘lim ishlari o‘qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim.Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo‘lish chog‘ida ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushmuomalalik bilan yo‘l qo‘yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini,biroq bu o‘rinda ma‘lum me‘yorga amal qilish zarurligini aytadi.Alisher Navoiy o‘qituvchining ayniqsa,talabchan bo‘lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi.Alloma ma‘lum fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o‘rganishga layoqatli,iste‘dodli bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foya keltiradi,qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir degan xulosaga keladi va shu o‘rinda quyidagilarni bayon etadi: „ Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir,qibiliyatsizga tarbiya-xayf.Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik bilan uni nobud qilma“, -degan fikrni keltiradi.

Allomamizning fikrlariga alohida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak,umuman qobiliyatsiz shaxsni tarbiyalash,haqiqatdan ham befoyda,samarasidir.Sababi unga qancha o‘rgatmang baribir samarasiz.Menimcha ko‘pchilik bolalar qobiliyatsiz emas,shunchaki ularda g‘ayrat,shijoat,xohish yetishmaydi. O‘qituvchi shunday bir usul yoki yo‘nalish qo‘llashi kerakki,o‘sha bolaning ya‘ni o‘quvchining aynan nimaga qiziqlishi borligini aniqlashi kerak. Ana shundagina o‘quvchiga to‘g‘ri yo‘nalish bera oladi.Sababi insonning aynab nimaga qiziqlishini bilmasdan,uning qobiliyatini bilib bo‘lmaydi.O‘quvchilarning nimaga qiziqlishini topa olib,uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olgan o‘qituvchi eng yaxshi o‘qituvchi desak xato bo‘lmaydi. Aynan g‘ayratli va

shijoatli bo‘lish haqida buyuk mutafakkirimiz Abdulla Avloniy quyidagicha ta‘kidlaydi:G‘ayrat vujudimizga quvvati mas‘ud va baxtiyor bo‘lishimizga sababdur.Shuning uchun har birimiz sa‘y qilub, o‘z kuchimiz va maishatimizga kerak bo‘lgan narsalarni topub,boshqalarga muhtoj bo‘lmay rohat-rohat yashamog‘imiz lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz,sarvatimiz,qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz,alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog‘liqdur. Harakatlik kishilar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum,doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lub xorlikda qolurlar“.

Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas,balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etadi.U yoshlarni bilimlarni puxta egallahsga,mehnat qilishga,umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorlaydi,ota-onalarni farzandlariga ma‘naviyat,nafosat,go‘zallik tuyg‘ularini shakllantirishga da‘vat qiladi.

Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg‘otish ,vatanni ozod qilish,xalq ma‘naviyatini yuksaltirish,turmushni farovonlashtirish mumkin.Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish,g‘ayrat,jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.

Xulosa o‘rnida shularni aytishim mumkinki,har bir insonga,u xoh yosh bola bo‘lsin,xoh maktab tamomlagan o‘smir yosh bo‘lsin unga yaxshi bir muallim joizdir.Muallim unga to‘g‘ri yo‘l,bilim hamda tarbiya beradi.

Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodga biz pedagoglar balki,butun jamiyat mas‘ulmiz,sababi ular bizlarning ertangi kunimiz poydevori,asoschisidir.Agarda biz ularga e‘tibor bermay,o‘z xolicha tashlab qo‘ysak,katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz.Bugungi kuning bolalari,yosh avlodi juda qiziquvchan va talabchan.Mana shuning uchun ham ularga zamon talabiga hos va mos ta‘lim,tarbiya berishga harakat qilishimiz va albatta ko‘zlangan maqsadlar sari olg‘a intilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” I.A.KARIMOV. Toshkent „Ma‘naviyat“ 2008.
2. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” R.A.Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, B.A.Normuradova, K.A.Matnazarova .Toshkent-2014
3. “Turkiy Guliston yoxud axloq” Toshkent „O‘qituvchi“ nashriyoti -1992.
4. “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” Toshkent. „Ma‘naviyat“-2007.